
QARAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING BO'ZATOV TUMANI HOKIMI ALLANIYEZOV KAMAL AMANBAYEVICH QUVASOY SHAHRIDA MEXMON BO'LDI.

Tashrif davomida K.Allaniyezov shaharda joylashgan "Vodiy tulporlari" ot kompleksidagi qorabayr ot zotlari, "Turon chorvasi" korxonasidagi naslchilikka mo'ljallangan chorva xayvonlari (echki, qo'y) va Polsha zotiga mos otlar hamda "IDECOMEBELS" MChJ korxonasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan yumshoq mebellar bilan tanishdi.

Shundang so'ng Bo'zatov tumani hokimi Allaniyezov Kamal Amanbayevich Quvasoy shahar hokimi To'rakulov Zafarjon Qodirovich bilan uchrashdi.

Suhbat davomida K.Allaniyezov shaharda tadbirkorlarga yaratilgan imkoniyatlar hamda shahar hokimligi tomonidan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlab kelayotganini alohida ta'kidlab Quvasoy shahridagi tadbirkorlarni Qaraqalpog'iston Respublikasining Bo'zatov tumaniga tadbirkorlik qilish uchun taklif etdi.

Uchrashuv davomida bir qancha kelishuvlar tuzildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-02-10 22:00:15